


## 2019-yil 1-noyabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida viloyatimizda 4894 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2560 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4481 ta (21,3 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 25544 tani tashkil etgan.






## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-noyabr holatiga 25594 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,3 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 23,7 % savdo, 13,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 13,3 % sanoat, 12,2 % qurilish, 4,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,5 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,1 % axborot va aloqa hamda 26,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, ming birlik		01.11.2019 yil	
	01.11.2018 yil	01.11.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
<b>Jami</b>	<b>21063</b>	<b>25544</b>	<b>21,3</b>	<b>100,0</b>
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2719	3409	25,4	13,3
Sanoat	2450	3390	38,4	13,3
Qurilish	2591	3118	20,3	12,2
Savdo	4836	6051	25,1	23,7
Tashish va saqlash	760	885	16,4	3,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	869	1172	34,9	4,6
Axborot va aloqa	247	293	18,6	1,1
Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	476	599	25,8	2,3
Boshqa turlari	6115	6627	8,4	26,0

Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Qarshi shahri (5345 ta), Chiroqchi (2054 ta), Koson (2023 ta), Qarshi (1994 ta) va Kitob (1728 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mirishkor (866 ta), Muborak (931 ta) hamda Nishon (949 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 24926 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4470 ta (21,9 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 25,7 % savdo, 13,3 % sanoat, 13,2 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 12,2 % qurilish, 4,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,5 % tashish va saqlash, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa va 26,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Qarshi shahri (5122 ta), Chiroqchi (2012 ta), Koson (1984 ta), Qarshi (1951 ta) va Kitob (1705 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mirishkor (862 ta), Muborak (899 ta) hamda Nishon (944 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


### Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil yanvar- oktyabr oylarida 4894 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 2,0 martaga ko'pdir.

### Yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Qarshi shahri (943 ta), Qarshi (420 ta), Chiroqchi (404 ta) va Kasbi (327 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Muborak (150 ta), Dehqonobod (185 ta), Nishon (196 ta), G'uzor (209 ta), Mirishkor (247 ta) hamda Koson (286 ta) tumanlari korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1409 ta), sanoat (1034 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (784 ta), qurilish (537 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (47 ta), sog'lqnii saqlash va ijtimoiy xizmatlar (115 ta), hamda tashish va saqlash (126 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*




**Tijorat korxonalarini**  
*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*


2019-yil 1- noyabr holatiga 20141 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 8439 ta, oilaviy korxonalar - 1176 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 10026 ta va boshqalar 500 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat  
ko'rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiyl soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**


Mas'uliyati  
cheklangan jamiyati




Xususiy korxona



Oilaviy  
korxona



Unitar korxona



Aksiyadorlik  
jamiyati



Boshqalar




**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**


2019-yil 1- noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 182 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 107 taga yoki 2,4 martaga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Afg'oniston va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-noyabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 182 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxona va tashkilotlarning eng yuqoriisi Qarshi shahri (52 ta), Qarshi (17 ta), Kitob (15 ta) va Nishon (14 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Mirishkor (4 ta), Kasbi va Shahrisabz tumanlari hamda Shahrisabz shahar (5 ta) hissalariga to'g'ri keladi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 135 tasi qo'shma korxonalar, 47 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda**



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %**




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>182</b>	<b>100</b>
Qarshi sh.	52	28,6
Shahrisabz sh.	5	2,8

*Tumanlar:*

G'uzor	10	5,5
Dehqonobod	10	5,5
Qamashi	12	6,6
Qarshi	17	9,3
Koson	12	6,6
Kitob	15	8,2
Mirishkor	4	2,2
Muborak	7	3,8
Nishon	14	7,7
Kasbi	5	2,7
Chiroqchi	6	3,3
Shahrisabz	5	2,8
Yakkabog'	8	4,4


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar - oktyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 90 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 70 taga ko'paygan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Qarshi shahar (22 ta yoki jamidagi ulushi 24,4 %), Qarshi tumani (10 ta yoki 11,1 %) va Nishon tumani (9 ta yoki 10,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Muborak (2 ta yoki 2,2 %), Shahrisabz (2 ta yoki 2,2 %), Kasbi (2 ta yoki 2,2 %) va Mirishkor tumani (3 ta yoki 3,3 %) hissalariga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida  
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 11 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 10 ta, Qozog'iston Respublikasi - 9 ta, Afg'oniston - 9 ta va Turkiya Respublikasi - 9 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-oktyabr oylarida Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (51 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (15 ta), savdo (9 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (5 ta), faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa axborot va aloqa hamda tashish va saqlash (1 ta) tashkil etgan.

## 2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



### Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1- noyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 19985 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1- noyabr holatiga qaraganda 23,1 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4256 tasi (21,3 %) Qarshi shahri, 1633 tasi (8,2 %) Qarshi, 1613 tasi (8,1 %) Koson tumani hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

### • Eng katta ulushi

- Qarshi sh. 21,3 %
- Qarshi 8,2 %
- Koson 8,1 %
- Chiroqchi 7,9 %
- Shahrisabz sh. 6,9 %
- Kitob 6,8 %
- Qamashi 6,7 %
- Yakkabog' 6,5 %

### • Eng kichik ulushi

- Dehqonobod 4,8 %
- G'uzor 4,5 %
- Shahrisabz 4,3 %
- Kasbi 3,8 %
- Nishon 3,6 %
- Muborak 3,5 %
- Mirishkor 3,1 %


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 19985 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 5883 tasi (29,4 %) - savdo, 3286 tasi (16,4 %) - sanoat, 3261 tasi (16,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3023 tasi (15,1 %) - qurilish, 1119 tasi (5,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 841 tasi (4,2 %) - tashish va saqlash, 447 tasi (2,2 %) - sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1848 tasi (9,4 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-oktyabr oylarida 4526 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,0 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Qarshi shahri (879 ta), Qarshi (374 ta), Chiroqchi (368 ta) va Kasbi (304 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Muborak (140 ta), Dehqonobod (169 ta), Nishon (176 ta), G'uzor (201 ta) hamda Mirishkor (220 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxona va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1401 ta), sanoatda (1030 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (781 ta), qurilishda (536 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (47 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (97 ta) hamda tashish va saqlashda (126 ta) tashkil etilgan.


### **Oilaviy korxonalar**

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1- noyabr holatiga 1208 tani tashkil etib, ulardan 1176 tasi yoki 97,4 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 1,7 martaga oshganligini ta'kidlash lozim.

## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 32,7 % yoki 385 tasi sanoat, 19,8 % yoki 233 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 19,0 % yoki 224 tasi savdo, 15,6 % yoki 184 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,8 % yoki 33 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,5 % yoki 18 tasi qurilish, 0,8 % yoki 9 tasi tashish va saqlash, 0,6 % yoki 7 tasi axborot va aloqa hamda 7,1 % yoki 83 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa axborot va aloqa, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan  
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>552</b>	<b>100,0</b>
Qarshi sh.	85	15,4
Shahrisabz sh.	82	14,9
<i>Tumanlar:</i>		
G'uzor	36	6,5
Dehqonobod	5	0,9
Qamashi	24	4,4
Qarshi	49	8,9
Koson	10	1,8
Kitob	25	4,5
Mirishkor	3	0,6
Muborak	15	2,7
Nishon	15	2,7
Kasbi	5	0,9
Chiroqchi	67	12,1
Shahrisabz	93	16,8
Yakkabog'	38	6,9

2019-yil yanvar-oktyabr oylarida 552 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,3

martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Shahrисабз tuman (93 ta), Qarshi shahar (85 ta), Shahrисабз shahar (82 ta) va Chiroqchi tumanlari (67 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Mirishkor (3 ta), Dehqonobod (5 ta) hamda Kasbi (5 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### 2019-yil yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 37,9 % yoki 209 tasi sanoat, 23,4 % yoki 129 tasi savdo, 20,1 % yoki 111 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 12,5 % yoki 69 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,6 % yoki 9 tasi sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,9 % yoki 5 tasi qurilish, 0,5 % yoki 3 tasi axborot va aloqa hamda 3,1 % yoki 17 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g'ri kelmoqda.

**Statistik registrlarni yuritish bo'lumi  
Tel.:71-230-84-10 (11)**